





**SIRDARYO
VILOYATINING
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI**
*(dastlabki
ma'lumotlar)*



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 478,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 18,5 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 10,2 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 460,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 46,8 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,8 % ni) tashkil etdi.

**TUMANLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI**
(mlrd. so'm)






**CHAKANA
SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK
SUBYEKLTLARI**

**TUMANLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI,
% da**


	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	478,9	102,4	18,5	89,8	460,4	102,9
Guliston sh.	171,2	104,3	10,1	116,6	161,2	103,6
Shirin sh.	7,4	103,1	0,1	84,3	7,4	103,4
Yangiyer sh.	45,8	103,6	2,8	123,9	43,0	102,5
tumanlar:						
Boyovut	25,3	99,6	0,3	34,3	25,0	102,1
Guliston	18,6	100,2	0,1	18,2	18,4	103,1
Mirzaobod	42,7	100,6	0,5	32,7	42,1	103,3
Oqoltin	24,7	98,7	0,2	17,5	24,5	101,7
Sardoba	21,2	99,8	0,1	17,1	21,1	102,3
Sayxunobod	16,7	97,7	0,3	25,7	16,4	103,0
Sirdaryo	86,5	102,7	3,9	109,2	82,6	102,4
Xovos	18,8	102,3	0,1	66,4	18,7	102,6

2019-yilning yanvar-fevraliga nisbatan viloyatning ayrim tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Guliston, Shirin shahar, Mirzaobod va Guliston tumanlarida qayd etildi.





**CHAKANA
SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK
SUBYEKTLAR
HUDUDLAR
KESIMIDA
ULUSHI,
% da**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirzaobod (99,5 %), Sardoba (99,4 %), Xovos (99,4 %) va Oqoltin (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston (7,5 %), Yangiyer (6,8 %) shahar va Sirdaryo tumanida (4,8 %) kuzatilgan.

96,1 %
**Kichik biznes va
xususiy
tadbirkorlik
subyektlar**





**SIRDARYO
VILOYATI
BO'YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI**


2020-yil yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 582,1 ming. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 0,7 % ga o'sdi) va viloyatning ayrim tumanlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari kuzatildi.

	Hajm, ming. so'm	O'sish sur'atlari, % da
Sirdaryo viloyati	582,1	100,7
Guliston sh.	1 933,6	103,5
Shirin sh.	402,4	102,6
Yangiyer sh.	1 090,0	101,7
tumanlar:		
Boyovut	200,6	97,9
Guliston	266,3	97,9
Mirzaobod	605,2	98,4
Oqoltin	488,0	97,1
Sardoba	331,2	98,0
Sayxunobod	221,2	96,0
Sirdaryo	694,0	101,3
Xovos	202,5	100,8

Ushbu ko'rsatkichni tumanlarlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Guliston sh. (1 933,6 ming. so'm), Yangiyer sh. (1 090,0 ming. so'm) Sirdaryo t. (694,0 ming. so'm), Mirzaobod t. (605,2 ming. so'm), Oqoltin t. (488,0 ming. so'm) va Shirin sh. (402,4 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.




**SIRDARYO
VILOYATI
TUMANLAR
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
O'SISH
SUR'ATLARI,
% da**



2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,8 % ni tashkil etib, 8,8 mlrd. so'mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,7 % o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiyl ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko'rsatkichi Guliston sh. (2,9 % jami viloyat chakana savdo tovar aylanmasiga nisbatan), Sirdaryo (0,3 %) tumanida kuzatildi.

**HUDUDLAR
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)**





**SIRDARYO
VILOYATI
ULGURJI
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI**

**YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK
KORXONALAR
VA
MIKROFIRMA-
LAR ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI
ULUSHI, % da**

Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **211,2 mlrd. so'mni** tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **21,6 %** ga kamaydi. 2,7 % ga kamaydi.

Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **43,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **20,7 %** ga kamaydi.


Kichik korxonalar

Savdo hajmi: **73,7 mlrd. so'm**
O'sish sur'ati: **101,9 %**
44,0 %

Mikrofirmalar

Savdo hajmi: **93,8 mlrd. so'm**
O'sish sur'ati: **102,5 %**
56,0 %

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalar hajm 2020-yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, 167,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga oshgan. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 79,3 % ni tashkil qilmoqda. Yangiyer (100,0 %), Shirin (99,2 %), Guliston shahrida (97,0 %), Sirdaryo (96,4 %) va Mirzaobod (86,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**HUDUDDLAR
KESIMIDA
ULGURJI SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI**

	Jami, mln. soʻm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. soʻm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik korxonalar va mikrofirmalar, mln. soʻm	2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	21 118,4	97,3	43 668,9	78,4	167 515,5	103,8
Guliston sh.	81 425,8	101,5	2 422,5	59,4	79 003,3	103,8
Shirin sh.	123,3	104,6	1,0	0,0	122,3	103,7
Yangiyer sh.	5 103,9	103,8	-	-	5 103,9	103,8
tumanlar:						
Boyovut	13 470,5	113,1	12 163,2	114,1	1 307,4	103,9
Guliston	4 058,9	84,0	1 722,0	66,9	2 336,9	103,5
Mirzaobod	14 498,8	97,4	1 953,3	68,7	12 545,5	104,1
Oqoltin	7 146,5	189,2	6 041,7	223,1	1 104,8	103,3
Sardoba	4 519,4	37,1	4 246,2	35,6	273,1	103,8
Sayxunobod	20 105,9	94,0	10 976,9	87,4	9 129,1	103,4
Sirdaryo	58 179,6	100,0	2 070,4	48,9	56 109,2	104,0
Xovos	2 551,8	55,2	2 071,7	49,8	480,1	104,1

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori oʼsish surʼatlariga ega yirik korxonalar Oqoltin tumanida (2,2 b.), Boyovut tumanida (114,1 %) kuzatildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar yuqori oʼsish surʼati Mirzaobod tumani (104,1 %) qayd etildi.

**TUMANLAR
KESIMIDA
ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI-
NING O'TGAN
YILGA
NISBATAN
O'ZGARISH
SUR'ATLARI,
% da**



Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Oqoltin tumanida (189,2 %), Boyovut tumanida (113,1 %) va Shirin shahrida (104,6 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236-86-34